

## EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI

**Arolova Zarina Lochin qizi**

*SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Uzluksiz milliy tarbiya tizimida ekologik bilimlarni berish dolzarb muammo sifatida baholanmoqda. Ekologik madaniyat jamiyatni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shadigan umuminsoniy madaniyatning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Kishilarning ekologik bilimlari ularning ekologik madaniyatlaridan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, globallashuv, ekologik madaniyat, biosfera, ekologik ong, ehtiyoj, ekologik ta'lim, ma'naviyat, ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik.

Jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirishning asosiy omillaridan biri – ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning madaniy takomilida tabiatning ma'naviy ahamiyatini chuqur tushunishni shakllantirishdir. “Inson-jamiyat-tabiat” tizimi elementlarining o'zaro ta'sirida ahloqiy jihat insonning ma'naviy-ruhiy ravnaqi nuqtai nazaridan yaqqol ko'zga tashlanadi. Olamni ma'naviy-ruhiy his qilish inson va uning tabiiy atrof-muhitga amaliy ta'siri o'rtasida chuqur ichki birlik mavjud. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, inson ma'naviy olami asosida tabiiy olamni madaniy o'zlashtirishi, pirovardida, tabiatga munosabat mas'uliyati kishilik jamiyatining konkret kundalik harakatlari amaliyotida ifodalanadi.

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyat insonning tabiatga ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatini ifodalaydi. Bu madaniyatni shakllantirish jarayonida ta'lim tizimi, oila va jamiyat muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yoshlarning ekologik ongini rivojlantirish kelajakda ekologik muammolarni hal qilishning muhim omili hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik munosabatlarning xalqaro ekologik munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlari yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonlar inson ekologik madaniyatini shakllantirishni, uning tabiat bilan uyg'un oqilona munosabatda bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda. Xususan, dunyo mamlakatlari aholisining ekologik muammolarga munosabati tobora yorqinroq namoyon bo'lmoqda. Ekologik muammolarning keskinlashuvi jamiyatda inson ekologik madaniyatini yuksaltirishni, ularga ekologik

ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy mexanizmlaridan kengroq foydalanishni taqozo qilmoqda. Shunga ko'ra, ekologik globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlarini, ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini, "ekologik shaxs"ni tarbiyalashning ilmiy asoslarini, ayniqsa o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishning maqbul modellarini aniqlashtirishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Ekologik globallashuv sharoitida ilmiy bilish sohalarining ekologiyalashuvi va jamiyat ekologik madaniyatini rivojlantirish ehtiyojlari ta'lim tizimiga ekologik yo'nalish berish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda. Bunday yo'nalish ostida odatda shu narsa tushuniladiki, ta'lim mazmuni ekologik madaniyatning tarixiy merosini sintezlashtirib, o'ziga singdirishi kerak. Lekin, ta'lim yo'nalishi yoki sohasining mazmuni ularni dialektik inkor qilishdagi asosiy tendensiyalarini hisobga olishining ahamiyati ham bundan kam emas.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning mushtarak-mujassam, uzluksiz, barcha uchun tushunarli tizimini (muqobil yo'nalishlarni hisobga olgan holda) yaratish muammosi ham dolzarb bo'lib turibdi. Bu tizimning diqqat markazida (davlat va nodavlat maqomidan qat'iy nazar) barcha kishilarni fan va ishlab chiqarishning ekologiyalashuvi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, amaliyotda madaniy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish masalasi turishi kerak. Bunda insonning tabiiy muhitga antropotexnogen ta'sirini kamaytiruvchi infrastrukturasini: texnik va texnologik imkoniyatlari; intellektual salohiyati darajasi ham hisobga olinishi zarur.

Mamlakatimizda atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu sohaga fuqarolik institutlarini faol jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan 9 ta qonun qabul qilinib<sup>1</sup>, davlat va nodavlat institutlariga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanmoqda. Chunki, ma'naviy-ma'rifiy muassasalar: klublar, madaniyat uylari va saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, mahallalardagi ma'naviyat xonalari, kutubxonalar va shu kabilar tabiatni muhofaza qilishda targ'ibot-tashviqot institutlari sifatida o'z faoliyati bilan ekologik ta'lim va tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Ular ekologik ta'lim va tarbiyada aholining mehnat va bo'sh vaqtlarida ijtimoiy-ekologik faolligini oshirishga ko'maklashuvchi ommaviy ijtimoiy tuzilmalar, xalq pedagogik-didaktik majmualari sifatida faoliyat ko'rsatadilar hamda shaxsning individual mehnat faoliyati va hayot tarziga mos ekologik xislatlarini shakllantiruvchi maskan hisoblanadi. Shu asosda kuchli ekologik madaniyat shakllanadi va bu jarayon barqaror ekologik muhitning garovi bo'lib qoladi.

Kishilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ularning dam olishini, atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatini tashkil etish masalalari kun tartibida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar ommaviy axborot

<sup>1</sup>Каримов И Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошланган ислохотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. 23-том. –Т.: “Ўзбекистон, 2015. – 245 б.

vositalari bilan o‘zaro hamkorlikda ularni mustahkamlash, chuqurroq tahlil qilish vazifalarini bajaradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi. Shu ma’noda, ekologik madaniyat tarixi: xalq ijodiyoti rivoji, ekologik tafakkur, ijodiy izlanish, ekologik ishlab chiqarish madaniyatini, aholining dam olish madaniyatini, jismoniy tarbiyani takomillashtirish, yangi bayram va marosimlarni joriy qilish jarayonidagi mazmun va shakllarga ega bo‘lib boradi. U inson faoliyatining barcha tomonlarini: moddiy yaratuvchilik, ijtimoiy, madaniy jihatlarni nafaqat xalqning ekologik qadriyatlarini egallashi, balki uni amaliy hayotida qo‘llash faolligini oshirishga ham qaratiladi.

XX asrning 80-yillariga kelib, uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya g‘oyasi umume’tirof etilgan g‘oyalar turkumiga kirdi. Qariyb barcha mamlakatlarda ekologik tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-ma’rifiy loyihalar paydo bo‘ldi, bu loyihalar davlatlar tomonidan faol moliyalashtirildi. Ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim va tarbiya beruvchi o‘quv predmetlari paydo bo‘ldi. Ekologik tarbiyaga e’tibor kuchaytirilgani bois turli jamiyatlarda tabiatga oqilona munosabat qilish zarurligini chuqur anglagan, ekologik muhitni asrashga intiladigan kishilar soni ko‘paydi. Davlatlar hujjatlarida turli masalalarning ekologik aspekti ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganini, jahon mamlakatlarida ekologik muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan normativ-huquqiy hujjatlarning ko‘payayotganini, tabiiy muhitni asrashga qaratilgan chora-tadbirlarning bisyor o‘tkazilayotganini, ekologik faol kishilar sonining ortayotganini ham juz’an ekologik ta’lim va tarbiya borasidagi sa’y-harakatlarning samarasi sifatida baholash mumkin.

Biroq, afsuski, bugungi kunda ham ekologik tarbiya samaradorligini oshirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Aholi ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatiga oqilona tus berishga qaratilgan sa’y-harakatlarga qaramasdan, jahon aholisi tarkibida ekologik bilimlarni o‘zlashtirmagan, o‘z hatti-harakatini tabiiy muhit ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirishga odatlanmagan kishilar soni ko‘pligicha qolmoqda. Jahon mamlakatlarida ekologik xarakterdagi jinoyatlar soni kattaligicha qolayotgani ham shundan dalolat beradi. “Ekologik jinoyatlar biologik xilma-xillikning kun sayin keskin qisqarishiga sabab bo‘lar ekan, jahonning barcha mamlakatlari uchun og‘ir oqibatlarga olib kelmoqda”<sup>2</sup>. Binobarin, ekologik tarbiya samarasini oshirish masalasi insoniyat taqdiri bilan bog‘liq strategik ahamiyatga molik vazifa sifatida qolmoqda. Ekologik tashviqot va targ‘ibot ishlarida aholining atrof-muhitni muhofaza qilishda tarixiy mas’uliyatni anglash hissini shakllantirish muhim

<sup>2</sup>Анубхути Кумар. Экономическая и экологическая преступность: риски для корпоративного бизнеса// refinitiv.ru.

ahamiyatga ega. Binobarin, ta'lim-tarbiya tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ekologik madaniyatni shakllantirib bo'lmaydi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy-metodologik asosi umume'tirof etilgan quyidagi besh qoidaga asoslanadi: birinchisi – olam moddiy elementlari o'zaro ta'sirlarning murakkab tizimini, biosfera ekologik muvozanatini aks ettiradi, uning qismlaridagi o'zgarishlar bir-biriga bog'liq; ikkinchisi – tabiatni muhofaza qilish madaniyati moddiy olamda mavjud munosabatlar va o'zaro bog'liq harakatlar qonunini ekologik faoliyatga tadbiiq etishni taqozo qiladi; uchinchisi – inson va jamiyat tabiat tadrijiy rivojining qonuniy natijasi bo'lib, tabiatdan ajralmasdir ("tabiat-jamiyat-shaxs" o'zaro birligi ziddiyatli bo'lib, bir butunlikni tashkil etadi); to'rtinchisi – biosfera ekologik nomutanosibli inson va jamiyat tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan o'zgarishlar texnika taraqqiyoti bilan emas, balki, jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirini boshqarishda subyektiv omilning madaniyatsizligi bilan bog'liq; beshinchisi - tabiat ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, ekologik vaziyatlarning xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu metodologik tamoyillardan kelib chiqqan holda, ekologik ta'lim va tarbiya, uning tarixida shakllangan merosiga vorislik asosida jamiyat oldida turgan ekologik muammolarni hal etishga yordam beruvchi yangi va ilmiy asoslangan bilimlarni berishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat shakllanishida ta'lim-tarbiyaning funksiyasi nimaga yo'naltirilgani, maqsadlari nima ekanligini aniq aks ettirishi kerak. O'z mohiyatiga ko'ra bu funktsiya kompleks xarakterga ega bo'lib, ayni paytda, tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish yo'nalishlarini uygunlashtirgan holda qamrab olishni taqozo etadi. Ekologik ta'lim-tarbiya butun hayot davomida insonning tabiiy muhitga munosabatlari haqidagi bilimlarining ongli va izchil rivojlanishini o'zida aks ettiradi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ta'lim-tarbiya tabiatni muhofaza qilish sohasidagi strategiyaga umummadaniy yondoshuvlarni shakllantirishga yo'naltirilishi bilan muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etadi. Ular tabiiy va ijtimoiy fanlarning inson yashash muhiti haqidagi bilimlariga tayanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.Т,-Ўзбекистон-2017
2. И.А.Каримов. Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошланган ислохотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. 23-том. –Т.: “Ўзбекистон, 2015. – 245 б.
3. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият” 2008 й.-Б.61.
4. Анубхути Кумар. Экономическая и экологическая преступность: риски для корпоративного бизнеса// refinitiv.ru.

5. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida o'zbekiston umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.
6. . Azamova, Sitora, and Zarnigor Suyunova. "O 'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MASALALARI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 3.4 (2026): 284-287.
7. Azamova, Sitora. "O'ZBEKISTON ZAMINIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. 5.9s (2025): 202-206.